

“DEVONI LUG‘ATIT TURK” ASARIDAGI AYRIM BARQAROR BIRIKMALARNING
LINGVISTIK TAHLILI

Utaganov Fazliddin Rahmatullayevich

O‘ZMU, Lingvistika1-kurs magistri.

E-mail: utaganovfazliddin361@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20229881>

Annotatsiya. Maqolada M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida barqaror birikmalarning qo‘llanilishi haqida fikr bildirilgan. Shuningdek, ibora, maqol va hikmatli so‘zlarning leksik yoki grammatik jihatdan farqlanishi, tasviriy ma‘noga va emotsional bo‘yoqqa ega bo‘lgan barqaror birikmalardan foydalanganligi, ayrim ibora va maqollar uslubiy bo‘yoqdorligining kuchaytirilgani kabi masalalar tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: tilning estetik vazifasi, lingvopoetika, barqaror birikmalar, iboralar (frazologizmlar), frazema, maqol va matallar, hikmatli so‘zlar (aforizmlar).

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности функционирования устойчивых сочетаний в труде М. Кашгари «Дивану лугат ат-турк». Исследуются вопросы лексико-грамматической дифференциации идиом, пословиц и афоризмов. Также анализируется использование устойчивых сочетаний, обладающих образительным значением и эмоциональной экспрессией, и способы усиления стилистической окраски отдельных фразеологизмов и паремий.

Ключевые слова: эстетическая функция языка, лингвопоэтика, устойчивые сочетания, фразеологизмы, фразема, пословицы и поговорки, афоризмы.

Abstract. The article examines the application of set expressions in M. Kashgari's "Diwan Lughat al-Turk". It investigates the lexical and grammatical differentiation of idioms, proverbs, and words of wisdom. Furthermore, the study analyzes the use of set expressions characterized by figurative meaning and emotional coloring, as well as the enhancement of stylistic nuances in certain phrases and proverbs.

Keywords: aesthetic function of language, linguopoetics, set expressions, idioms (phraseological units), phraseme, proverbs and sayings, aphorisms.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-mayda qabul qilingan “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2995-sonli Qarori, shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 23-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetiga tashrifi chog‘ida o‘zbek mumtoz adabiyotiga taalluqli manbalarni o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish, shu yo‘nalishda birinchi navbatda yetuk manbashunos va matnshunos kadrlarni tayyorlash vazifa qilib belgilangan. Qarordan kelib chiqqan holda, bugungi globallashuv davri barcha sohalar qatori ta‘lim-tarbiyani ham sifat jihatdan yuqori bosqichga ko‘tarishni taqozo etmoqda.

Yuksak intellektual salohiyatga ega bo‘lgan yosh avlod ma‘naviy jihatdan ham barkamol bo‘lishi bugungi kun talabidir. Millatning kelajagi bo‘lgan yetuk, komil yoshlarni tarbiyalashda mumtoz adabiyotimizning daho ijodkorlari asarlarida ilgari surilgan umuminsoniy g‘oyalar

targʻibi alohida kasb etishi hech kimga sir emas. Bugun adabiy merosimizni yangicha nuqtayi nazar bilan xolis tadqiq va targʻib etishga, baholashga eʻtibor qaratilganligi diqqatga sazovordir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev mumtoz adabiyotimizni, jumladan, qoʻlyozma asarlarni xalqimizga yaqinlashtirish, bunday noyob merosni haqiqatdan ham, maʼnaviyatimizning asosiy manbaiga aylantirish barchamizning vazifamiz ekanligini alohida taʼkidlab kelmoqdalar.

Oʻzbek xalqining boy ilmiy-maʼnaviy merosi, adabiyot va sanʼati haqidagi qimmatli maʼlumotlar qoʻlyozma manbalarda aks etgan [1, 213]. Lugʻatshunoslik tarixidan maʼlumki, qator qoʻlyozma lugʻatlar muayyan maqsadlarda tuzilgan. Ularning har biri original, biri ikkinchisini takrorlamaydi. Leksemalarni diaxron jihatdan oʻrganishda tilning rivojlanish bosqichlariga alohida eʻtibor qaratiladi. Shuning uchun tarixiy jarayonlar soʻz maʼnolarining oʻzgarishiga taʼsir koʻrsatadi. Soʻz maʼnosi isteʼmol doirasining kengayishi, uning maʼno ottenkasidagi oʻzgarishlar ham til taraqqiyotida oʻziga xos mavqeni egallaydi [2, 118].

Soʻzlarning yangi maʼnolar bilan boyib borishi qonuniy jarayon hisoblanadi. Leksikada har bir leksema maʼnosining oʻzgarishi, yangi maʼnoda qoʻllanishi, isteʼmoldan chiqishi, uning passivlashishi va faollashishi kabi jarayonlar kuzatiladi. Shu nuqtayi nazardan soʻz maʼnosini tarixiylik asosida tekshirib aniqlash yangi soʻzlarning yuzaga kelishi qonuniyatlarini ochib berishda ayniqsa ahamiyatlidir. Soʻz tarixan jamiyat taraqqiyoti bilan bogʻliq holda rivojlanib kelgan. Har bir leksik birlik oʻrni bilan bir-biriga yaqin yoki alohida-alohida tushunchalarni anglatishi mumkin. Soʻz maʼnolari va maʼno nozikliklari bosh va koʻchma maʼnolar kabi alohidalikka egaligi bilan ajralib turadi. Soʻz maʼnolaridan biri individual tarzda, boshqa holatlari esa kishilar tomonidan koʻchma maʼno hosil qilish jihatlariga koʻra ajratiladi. Aslida soʻz maʼnosining kengayish, rivojlanish qonuniyatlarini oʻrganish soʻzlarning omonimik, sinonimik, paronimik, antonimik va koʻpmaʼnolilik xususiyatlarini aniqlash, tilning lugʻat boyligini kuzatish, turli lugʻatlar tuzishga katta yordam beradi [3, 198]. Shaklan bir xillikka ega boʻlgan ikki va undan ortiq maʼnoning bir shaklda uchrashi hollarini matnda koʻrish mumkin [4, 128].

Badiiy asar tilini organuvchi sohani “lingvistik poetika”, “lingvopoetika” deb nomlash filologiya ilmida ancha turgʻunlashgan hamda - lingvistik poetikaning filologik ilmlar tizimida alohida mustaqil fan sifatidagi tadqiqotlar yaratilgan. Badiiy asar tilini ongli ravishda tahlil qilish maʼlum bir asar mazmunini, uning gʻoyaviy mohiyatini, yozuvchining ijodiy mahorati va gʻoyaviy yoʻnalishini chuqur oʻzlashtirish imkonini beradi, yosh avlodni oʻz bilimini amalda mustaqil sinab koʻrish malakalarini hosil qilib, maʼnaviy dunyoqarashini shakllantiradi, turmush haqida, kishilar va insoniy munosabatlar toʻgʻrisida shaxsiy mushohada yuritishga imkon yaratadi [Lapasov J. 1995:3 b.].

Sheʼriy asarlarda ibora, maqol, matal va aforizmlardan oʻrinli foydalanish muhim ahamiyatga ega boʻlib, shoirning fikrini loʻnda va ixcham ifodalash, voqea va hodisalarni goʻzal tasvirlashga imkon beradi, qiyoslash va obrazlilikni yuzaga chiqaradi. Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga koʻra umumiylikni tashkil etsa ham, maʼno butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir. Shunga koʻra barqaror birikmalar quyidagi guruhlarga boʻlinadi: 1. Frazologizmlar; 2. Maqol va matallar; 3. Aforizmlar [A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. 2010: 69 b.].

So‘zlarning tanlanishi, gap tuzilishi, leksik-semantik, ritmik-intonatsion birliklarning qo‘llanishi ham mazkur uslub talablaridan kelib chiqadi. Badiiy matnning lisoniy xususiyatlaridan eng muhimi ham shundaki, unda emotsional bo‘yoqdor so‘zlarga, sheva so‘zlariga, tarixiy va arxaik so‘zlarga, jargon va argolarga, ko‘chma ma’noli so‘zlarga, ma’nodosh, shakldosh, o‘xshash talaffuzli va zid ma’noli so‘zlarga, shuningdek, ibora, maqol-matal va aforizm kabi birliklarga keng o‘rin beriladi [Yo‘ldoshev M. 2007: 35 b.].

Matn tilshunoslik, adabiyotshunoslik, umuman filologiya fanining tekshirish obyekti hisoblanadi. Biror matn tilshunoslik nuqtayi nazaridan tekshirilar ekan, biror adabiy til kategoriyalari – leksik, fonetik, morfologik va sintaktik birliklardan qanday foydalanganligi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Shundan kelib chiqib, badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilish jarayonida quyidagi tamoyillarga tayanib ish ko‘rish maqsadga muvofiq: 1. Shakl va mazmunm birligi tamoyili; 2. Makon va zamon birligi tamoyili; 3. Xususiylikdan umumiylikka o‘tish tamoyili. Tahlil usuli sifatida esa quyidagilar e’tirof etiladi: 1. Lisoniy tabdil usuli; 2. Matn variantlarini qiyoslash usuli; 3. Lug‘atlarga asoslanish usuli; 4. Lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli [O‘rinboyev B., Qo‘ng‘urov R., Lapasov J. 1990: 34 b.]. Badiiy va publitsistik asarlarda barqaror birikmlar umumxalq tilida qanday shaklda bo‘lsa, xuddi shunday o‘zgarishsiz shaklda ham, ba’zan esa ayrim o‘zgarishlarga uchragan holda ham qo‘llanadi. Bunday holatni “Devonda”da ham kuzatish mumkin (“Devon” I, II, III jild, 1960-1963-yil) asarida frazeologizmlar, maqol va matallar ham o‘rinli qo‘llanib, asarning ta’sirchanligini, obrazlilikini oshirishga xizmat qilgan.

Devonda qo‘llangan **Ermägükä eşik art bolur** [Egamberdiev A., 2024: 11-12] ya’ni “Yalqovga eshik ostonasi ham tog‘ tepasidek ko‘rinadi” maqoliga hozirgi kunda *Dangasaga bulut soyasi ham yuk yoki Dangasaning qo‘li saratonda sovqotar* kabi muqobillarni uchratamiz. **Ağiz yesä, köz uyalur** maqoli esa bugungi kunda “Yegan og‘iz uyalar” yoki “Yemoqning qusmog‘i bor” shaklida qo‘llanmoqda; **Uluq yağiri oğulqa qalir** (Otning kuragidagi yag‘ir bolalariga meros bo‘lib qoladi) maqolini Qazisan, qartasan, asl zotingga tortasan; **Alimči – arslan, berimči – sičğan** (Qarz beruvchi – arslon, qarz oluvchi – sichqon) maqolini Qo‘l bilan berib oyoq bilan yuguryapman; **Müş oğli muyar tuğar** (Mushukning bolasi onasiga o‘xshab miyovlaydi) maqolini Olmaning tagiga olma tushadi; **Tayğan yügürgänni tilkü sew sewmäs** (Yugurik (chopqir) tozini tulki sevmaydi) maqolini Mevali daraxtga tosh otiladi; **Qaz qopsa, ördäk kölig igänur** (G‘oz (suvdan) ko‘tarilsa, ko‘lni o‘rdak egallaydi) maqolini Sulaymon o‘ldi, devlar qutildi; **Yilan kendü egrisin bilmäs, tewäy boynin egri ter** (Ilon o‘zining egriligini bilmaydi-da, tuyaning bo‘ynini egri deydi) maqolini Ishtoni yo‘q tizzasi yirtiqqa kulibdi; **Anča añar tiränil** (Senga qattiq alam va tashvish yetsa, o‘tib ketar deb sabr il) maqolini Sabr tagi sariq oltin; **Suw içürmäskä sut ber** (Suv ichirmasga sut ber) maqolini Otangni o‘ldirganga onangni ber.

Savtniñ azuqi bolsa, yol üzä yer (Savdogarning moli toza, beshubha bo‘lsa, yo‘l ustida yeydi) maqolini esa Oshing halol bo‘lsa, ko‘chada ye kabi ko‘rinishlarda juda ko‘plab uchratish mumkin.

Bu xildagi maqollar asarda juda ko‘p keltirilgan bo‘lib, ularning ba’zilari bugun tilimizda ham faol qo‘llanayotgan maqollardan iborat bo‘lib, barcha davlar uchun birdek ma’no kasb etishi bilan ajralib turadi.

Masalan, hozirgi tilimizda uchraydigan **“O‘ynashmagil arbob bilan, arbob urar har bob bilan”** xalq maqoli “Devon”da *“Alplar birla uruşma, beglar birla turuşma”* (Botirlar bilan urushma, beklar bilan xusumatlashma, tiklashma) ayni zamonda behuda bahs qilmaslikka, rahbarlar bilan murosa qilishga chorlovchi mazmunida qo‘llangan. Qolaversa, bir ish uchun intilgan ikki kishi, taxt talashgan bir necha podshohlar yoki bir qizga sovchi yuborgan ikki odamga qarata aytilgan **“Bir qozonda ikki qo‘chqor kallasi qaynamaydi”** barqaror birikmasi asarda *“Qo‘sh qilich qinqa sig‘mas”* (Qo‘sh qilich bir qinga sig‘mas) ko‘rinishida o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, asarda xalqimiz tomonidan *ishyoqmas, dangasa, yalqov* kishilarga nisbatan ishlatiladigan **“Qaynar o‘g‘uz ke‘g‘isiz bolmas”** (Tezoqar suv kechuvsiz bo‘lmas) maqoli uchraydi, ushbu maqol *“Jon kuydirmasang, jonona qayda, Tog‘ga chiqmasang, do‘lona qayda?”* degan mazmunni anglatadi. Bugungi texnika rivojlangan, axborot juda tez rivojlangan sun‘iy intellekt ommalashayotgan jarayonda hamma narsa raqamlashmoqda, insonlar uyida turib o‘z ishini bitirmoqda, lekin bu narsa ko‘plarni yalqov qilib qo‘yayotgani ham ayni haqiqat.

Shuningdek, asarda *“Do‘stsiz boshim - tuzsiz oshim”, “Do‘sting mingta bo‘lsa ham, oz, Dushmaning bitta bo‘lsa ham, ko‘p”, “Oyning o‘n beshi qorong‘i bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘”, “Oyning yarmi qorong‘i bo‘lsa, yarmi yorug‘”, “Birovga choh qazisang, o‘zing yiqilasan”, “Birovga chuqur qazisang, o‘zing tushasan”, “So‘nggi pushaymon – o‘zingga dushman”, “Otang bolasi bo‘lma, odam bolasi bo‘l”* kabi mazmunda tilimizda bugun faol qo‘llanadigan xalq maqollarini o‘z o‘rnida qo‘llaydi bu esa asarning ta’sirchanligini, ifodaviyligini oshirishga xizmat qilgan va bayon etilmoqchi bo‘lgan fikr, maqsadning o‘quvchiga tezroq yetib borishini ta’minlaydi hamda asardagi xalqonalikni kuchaytiradi. Mahmud Koshg‘ariy “Devon”da ko‘plab xalq maqollarini uslubiy vosita sifatida keltiradi. Bu ham hassos ijodkorning tilimiz ravnaqiga, uning ta’sirchanligini oshirishga qo‘shgan o‘ziga xos ulushi sanaladi.

Shuningdek, “Devon”dagi ayrim maqollarning mazmuni to‘liq saqlangan, ammo shakli biroz o‘zgargan holatdagi ko‘rinishlari ham uchraydi. Buni quyidagi misollar tahlili orqali ko‘rishimiz mumkin:

1. *Eshyak ayur: – Basim bolsa, sundurida suw ichkaymen* (Eshak aytar: – Boshim omon bo‘lsa, dengizdan suv ichaman) hozirda Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi shaklida;
2. *Umä kelsä, qut kelir* (Mehmon kelsa, qut kelar) hozirda Mehmon kelar eshikdan, rizq (Baraka) kelar teshikdan shaklida;
3. *Kej ton opramas, kejšlig bilig artamas* (Keng to‘n to‘zimaydi, kengashli ish buzilmaydi) hozirda Maslahatli to‘n tor kelma shaklida;
4. *Beş eriyäk tüz ermäs* (Besh barmoq barobar emas) hozirda Besh qo‘l baravar emas shaklida uchraydi.

Asarda shunday maqol va iboralar uchraydiki, Mahmud Koshg‘ariy “Devon”da qanday shakl va mazmunda keltirgan bo‘lsa, ularning mazmuni semantik jihatdan hozir ham deyarli shundayligicha ifodalanadi:

1. *Kökka sağursa, yüzka tüşür* – Ko‘kka tupursang, yuzingga tushadi.
2. *Tilkümü tuğai azu börimü?* – Tulki tug‘dimi yoki bo‘rimi?
3. *Teway münüp qoy ara yaşmas* – Tuya minib qo‘ylar ichida yashirilib bo‘lmas.
4. *Qaniğ qan bila yumas* – Qonni qon bilan yuvib bo‘lmaydi.

5. *Qorqmış kişika qoy başi qoş körünür* – Qo‘rqan odamga qo‘sha ko‘rinadi.

6. *Suv körmaginča etük tartma* – Suvni ko‘rmaguncha etikni yechma.

Xulosa qilib aytganda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida juda ko‘plab barqaror birikmalarni uchratish mumkin. Asarda faqat tarkibi o‘zgartmagan, umumtil xalq maqollarini qo‘llash bilan chegaralanmaydi, balki badiiy matn talabi bilan umumxalq maqollariga turli xil struktural va semantic o‘zgarishlar kiritadi bu esa yozuvchining xalq maqollarini o‘z o‘rnida qo‘llash sohasidagi novatorligidan dalolat beradi.

Maqollarni ishlatish mahorati bilan asarning ta’sirchanligini ta’minlagan. Asarda tasviriy ma’noga va emotsional bo‘yoqqa ega bo‘lgan maqollardan unumli foydalangan, shu bilan birga, ba’zi maqol va iboralarning ma’nosi boyitilib, ayrim maqollarning emotsional-ekspressiv bo‘yoqlari kuchaytirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. -Toshkent, 2017-yil 24-may.
2. Ўзбек тили лексикологияси. -Тошкент: Фан, 1981. Б -198
3. А.Нурмонов, Н.Махмудов, А.Собиров, Ш.Юсупова. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент: Илм зиё. 2010. Б. 69.
4. Sodiqov Q. Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari. -Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2017. 216-b.
5. У.Бердиев, Р.Расулов. Ўзбек тилининг паремологик луғати.-Т.: Ўқитувчи, 1984. В.120.
6. Ш.Раҳматуллаев. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. –Т.: Фан, 1992
7. Egamberdiyev A. Devonu lug‘at-t-turk va Qutadg‘u bilig asarlarida qadimgi xalq maqollari. –Т.: Firdavs-shon nashriyoti, 2024.
8. Mutallibov S. Divan lug‘at-at-turk. –Т.: О‘зССР Fanlar akademiyasi nashriyotining bosmaxonasi, 1960. (I, II, III jild).
9. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоетик таҳлили асослари.- Тошкент: Фан, 2007. Б. 35.
10. Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадий текстнинг лингвистик таҳлили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. -Б. 34.
11. Ўзбек халқ мақоллари. –Тошкент: Шарк, 2005.